

FIZIKA FANI O'QUV MASSHG'ULOTLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH.

Mo'minova Mahfuza Maxmudovna;
Jizzax shahar 9-maktab Fizika fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fani darslarini tashkil etishda integrative yondashuv haqida va integrativ yondashuv yutuq va kamchiliklari ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, integrativ yondashuv, simulyator va boshqalar.

ОРГАНИЗАЦИЯ КУРСОВ ФИЗИКИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА.

Муминова Махфуза Махмудовна;
Учитель физики 9-й школы города Джизак.

Аннотация: В данной статье представлена информация об интегративном подходе к организации уроков физики, преимуществах и недостатках интегративного подхода.

Ключевые слова: интеграция, интегративный подход, тренажер и др.

ORGANIZING PHYSICS COURSES ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH.

Mominova Mahfuza Makhmudovna;
Teacher of physics at the 9th school of Jizzakh city.

Abstract: This article provides information about the integrative approach to the organization of physics lessons and the advantages and disadvantages of the integrative approach.

Keywords: Integration, integrative approach, simulator, etc.

KIRISH. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol o'qitish usullari va axborot – kommunikatsion texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Ushbu jarayonning jadallashish sabablaridan biri, insoniyatning barcha faoliyat sohalariga kompyuter va axborot texnologiyalarining keng ko'lamda kirib kelishi bo'lsa, ikkinchi asosiy sababi, raqobatbardosh yosh mutaxassislarni tayyorlash

tizimiga zamonaviy ta'lim texnologiyalari borgan sari kengroq ko'lamda joriy etilishidir.

O'quvchi-talabalar egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, manbalarni mustaqil o'rganib, zaruriy axborotlarni yig'ish, tartiblashtirish, saqlash, tahlil qilishlari va ularni o'z o'rnida maqsadli foydalana olish malakasini egallashlariga to'g'ri kelmoqda. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchi shaxsining qiziqishlari yo'nalishida rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishda nazoratchi – boshkaruvchi funktsiyalarini bajaradi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga o'ziga xos uslubiy yangiliklar, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol o'qitish usullaridan foydalaniladi. Interfaol o'qitish - bu jamoa bo'lib fikrlash jarayoniga faol pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'limning birlamchi ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o'ni juda muhimdir. Axborotlashtirilgan asrda axborotlar oqimi muntazam ravishda ortib boradi va tabiiy ularga mos muammo hamda ularning yechimlari ham tez o'zgarib boradi. Demak ushbu jamiyatga mos va unda faol qatnashuvchi bo'laman degan, shaxs yani mytaxasis ham ilmiy axborotlarni izlash, to'plash ba undan foydalanish uchun olingan axborotlarni tizimlarga ajratish, muammoga xos fikr va texnikaviy yechimlarning optimal variantlarini tanlash usullarini bilishlari zarur.

Ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar olib brogan Ya.A.Komenskiy, E.Rosmesler, F.Yunge, Dj.Dyui V.Romanovskiy, A.Kolmogorov, I.Petrovskiyilar axborot texnologiyalar asrida umum ta'lim maktablari darslarini axborot telekommunikatsiya vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidlab o'tishgan.

Tahlil va natijalar.

Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi. Zamonaviy o'qituvchi kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi, o'z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o'zlashtirishga intilishi, o'quv axborotlarini o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda. Binobarin, global axborotlashuv ijtimoiy sub'ektlar, xususan, o'quvchilar tomonidan ham istalgan ma'lumotni ixtiyoriy ravishda o'zi uchun qulay sharoit va turli joydan axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o'zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo'lsa-da, biroq, shaxs tomonidan bu tahlitda o'zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma'lumotlarning muayyan sohalar bo'yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Ta'lim tizimida tom ma'noda o'quvchiga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o'qituvchi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o'quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishi zaruriyat sifatida bugungi kunda dolzarbligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi o'quvchilar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi o'quvchilar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o'quvchilarda tanqidiy, kreativ

tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'otlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetensiyaviy yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, o'qituvchilarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini internatsionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida o'qituvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Kreativlik (lot., ing. "create " – yaratish, "creative " yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "o'quvchilar e'tiborini

ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi. Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi. Shaxsga yo'naltirilgan kreativ yondashuv o'quvchilarda:


- individual xususiyatlarini rivojlantiradi;
- mustaqil bilim oshirishga undaydi;
- ichki imkoniyat va qobiliyatini namoyon etishga undaydi;
- bilish faolligini oshiradi;
- o'quv materiallarni o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishga o'rgatadi;
- yangi g'oyalarni ilgari suradi, ularni asoslaydi, o'z fikrini erkin ifodalaydi va himoya qiladi;
- muammoli vaziyatlarga samarali yechimini topish malakasini o'zlashtiradi.

Kreativ yondashuv asosida tashkil etiladigan darslarda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Fizika darslarini tashkil etishda juda ham ko'p interaktiv manbalar va simulyatorlar mavjud bo'lib ulardan biri phet.colorado.com sayti bo'lib, unda fizika fani darslarida qo'llash mumkin bo'lgan juda ham animatsion ma'lumotlar mavjud bo'lib, u o'quvchilarda bo'layotgan xodisa yoki jarayonni tasavvur qilishlariga juda ham yordam beradi. Ushbu web sahifada nafaqat fizika fani balki boshqa fanlar bo'yicha ham kerakli animatsion ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Fizika fani bo'yicha barcha bo'limlar uchun tashkil simulyatorlar o'quvchilarda o'tilayotgan mavzu bo'yicha kerakli tushunchani shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Optika bo'limi bo'yicha berilgan linzalar mavzusi doirasida berilgan simulyatorni ko'rib o'tsak:



Ushbu simulyator orqali shuni ko'rishimiz mumkinki jismning har qanday vaziyatida hosil bo'layotgan tasvirni o'quvchilarga yetkazib berish uchun juda mukammal ishlangan. O'quvchilar ushbu mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotlarni o'zlari mustaqil ushbu web sayt orqali bimalol o'rganishlari mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki integrative yondashuv asosida tashkil etilgan har qanday dars mashg'uloti o'quvchilarning ushbu fanni o'rganishlarida eng samarali yo'l xisoblanadi. Bu esa o'qituvchilardan o'z fanlarini mukammal bilish barobarida fan yangiliklari bilan hamohang ishlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1. Andreev A.L. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа педагогика // Педагогика. - М. - 2005. - № 4. -С.19-26.
- 2. Mamatov M.SH., Temurov S.Y. Bo'lajak matematika o'qituvchilarida umumkasbiy kompetentlilikni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida shakllantirish//«Ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirishning nazariy va

amaliy asoslari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Jizzax. - 2013. 376-377 betlar.

- 3. Usarov S.A. Raxmonkulov F. P.. “Organization of practical and laboratory activities in the educational process// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852 539-547-betlar.
- 4. Usarov S. “ Bo’lajak matematika fani o’qituvchilarida mantiqiy savodxonlikni shakllantirish omillari”. 5th - International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education 2022.
- 5. Usarov S.A.. Elektron ta’lim muhitida o’quvchilarning mantiq elementlarini o’rganishga qiziqishlarini rivojlantirish // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali, 2022 / 2 - son, ISSN 2181-9580 264-270 betlar.
- 6. Usarov S.A.. O’quvchilarning mantiqiy kompetentligini va mantiqiy savodhonlikni shakllantirishning dolzarbligi.. “Taffakur ziyosi” ilmiy uslubiy jurnal 1/2022 147-149 betlar.

